

Ta'lim va tarbiya – bosh mezon



Navoiy viloyati hokimligining katta majlislar zalida “Buyuk ajdodlarga munosib voris bo’laylik” shiori ostida yoshlar festivali doirasida viloyat hokimi Q. Tursunov bilan hududdagi iqtidorli yoshlar hamda yosh o’qituvchilar ishtirokida fan va ta’lim yo’nalishida “Hokim va yoshlar” uchrashuvi bo’lib o’tdi. Ushbu tadbirda O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Navoiy bo’limining yosh olimlari va doktorantlari ham ishtirok etishdi.

Uchrashuv O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning joriy yilning 23 avgust kuni bo’lib o’tgan videoselektor yig’ilishida xalq ta’limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma’naviyatini yuksaltirish masalalari haqida so’zlagan nutqiga bag’ishlandi. Tadbir ishtirokchilari Davlatimiz rahbarining ma’ruzasidan kelib chiqadigan vazifalarni bajarish yo’llarini muhokama qilishdi.

Jumladan, uchrashuvda ishtirok etayotgan o’qituvchilar bu borada oldimizda turgan dolzarb vazifalar haqida fikr yuritib, Prezidentimizning maktab ta’limi tizimini isloh qilish bo’yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarbdan ruhlanganini aytib o’tishdi. Chunki, davlat rahbarimiz, ta’kidlaganidek, jamiyat hayotini o’zgartirishga qaratilgan islohotlar avvalo ta’lim tizimidan, bog’cha, maktab, tarbiya masalasidan boshlanadi, chunki maktabni o’zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o’zgartirib bo’lmaydi. Ta’lim va tarbiyaning asosi, poydevori esa bu – maktab. Maktabni maktab qiladigan kuch esa o’qituvchilardir.

Shu sababli, murabbiylar tinimsiz o’z ustida ishlashlari va o’quv mashg’ulotlariga ijodiy yondoshishlari lozim. Bu sohada keyingi yillarda ko’plab ishlar amalga oshirildi. O’qituvchilar qishloq-xo’jalik ishlaridan ozod etildi, sohada qog’ozbozlik kamaytirildi va shu asnoda ularning bo’sh vaqtlari ko’paydi, qaysiki, o’zlarining to’g’ridan –to’g’ri vazifalari bo’lmish yoshlar tarbiyasiga ko’proq vaqt ajratish imkoniyati tug’ildi.

Yig’ilishda yana pedagog xodimlar mehnatini rag’batlantirish bo’yicha katta ishlar qilinayotganligi alohida ta’kidlandi. Oxirgi 3 yilda o’qituvchilarning ish haqi o’rtacha 2,5 barobar oshirildi. Uzoq tumanlarga borib ishlayotgan pedagog kadrlar mehnatini rag’batlantirish bo’yicha aniq mezonlar belgilandi. Ularga 50 foizgacha qo’shimcha oylik ustamalar to’lanmoqda. Bu olis hududlarda yetishmayotgan mingdan ziyod o’qituvchini jalb etish imkonini berdi. Nafaqa yoshida faoliyatini davom ettirayotgan o’qituvchilarga pensiyasi to’liq miqdorda berilmoqda. Albatta, bu qilingan ishlar o’qituvchilik kasbini sharafloydi.

Ma'lumki, yoshlarni komil farzandlar qilib tarbiyalashda ta'lim-tarbiya muhiti bilan bir qatorda va ularni rag'batlantirish masalalariga e'tibor qaratish katta ahamiyatga egadir. Shu asnoda, viloyat hokimiyati tomonidan yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida 25 milliard so'mga yaqin mablag' ajratildi. Viloyat hokimi tashabbusi bilan "Yoshlar xiyoboni" xuddi shu kuni ochilgani ham ushbu islohotlar davomidir.

Ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan tajribali va fidoyi muallimlar davlat rahbarimizning "Moddiy va ma'naviy hayotni uyg'un rivojlantirishimiz kerak. Maktab bu borada asosiy bo'g'in bo'lishi lozim. Maktab ta'limini rivojlantirish biz uchun buyuk umummilliy maqsadga, umumxalq harakatiga aylanishi zarur", degan fikrlari to'liqlantirganini bildirdilar.

Shuningdek, yig'ilishda informatsion xurujdan yoshlarimizni asrash uchun milliy g'oya va uning mafkuraviy negizlarini puxta ishlab chiqish, yosh avlodni bolalikdan milliy g'urur va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash dolzarb ahamiyatga ega ekanligi va ularni kitobga oshno qilish, ulug' allomalarimiz qoldirib ketgan bebaho ma'naviy merosimizni chuqur o'rganish lozimligi ta'kidlandi.

Yoshlar uchrashuvda fikr-mulohazalarini bildirish bilan birga viloyat rahbariga o'zlarini qiziqtirgan savollar bilan murojaat qilishdi. Bir guruh pedagoglar va yoshlar Viloyat hokimiyatining tashakkurnomasi bilan hudud ijtimoiy hayotida faolligi uchun taqdirlandilar.

Fevzi ISTABLAEV,

FA Navoiy bo'limi matbuot kotibi.